

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING MEDIA SAVODXONLIGINI OSHIRISH MEXANIZMI

N.O.Saidova

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ibroximova Zebiniso

FarDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

zebinisoabdurahmonova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20675428>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining media savodxonligini oshirishning nazariy asoslari va uni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Raqamli ta'lim resurslarining turlari, ularning ta'lim jarayonidagi o'рни hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, media savodxonlikni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va tarbiyachilarning media kompetentligini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Media savodxonlik, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, raqamli ta'lim resurslari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media kompetentlik, axborot-ta'lim muhiti, raqamli pedagogika, innovatsion ta'lim, SMART texnologiyalar.

Zamonaviy maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – bu har bir tarbiyalanuvchining nafaqat bilimlar yig'indisi bilan qurollantirilishi, balki qiziqishlari, moyilligi, rivojlanishi va tarbiyasi, ularni ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyalarini shakllantirishiga mos ravishda sifatli ta'lim-tarbiyani ta'minlashdan iborat.

Raqamli jamiyat sharoitida media savodxonlikni oshirish va bu jarayonda raqamli ta'lim resurslarini yaratish mamlakatda ta'limning barcha shakl va darajalarini axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bunda axborot texnologiyalari jamiyatning axborot resurslarini qo'llash jarayonida muhim tashkil etuvchilardan biriga aylandi.

Raqamli manbalar ishlatilgan o'quv to'plamlarini tabiiy ravishda to'ldiradigan o'quv dasturlari va darsliklarga muvofiq qulay tarzda tashkil etilishi kerak.

Raqamli ta'lim resurslari – o'quv jarayonida qo'llash maqsadlarida joriy qilinadigan raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar majmui hisoblanadi.

Oddiy raqamli ta'lim resurslari (elementar RTR) – yagona bir butun holatda foydalanish uchun javob beradigan va mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin bo'lgan alohida elementlarga bog'linishiga yo'l qo'ymaydigan holatdagi resurslar.

- MS Word formatidagi maqola, illyustratsiyali HTML, PDF va boshqalar;
- JPEG formatidagi illyustratsiya;
- HTML formatida matn bilan birga keladigan JPEG rasm;
- HTML formatdagi mundarija chida GIF formatdagi skanerlangan sahifalar to'plamidan ko'rinishidagi kitob;
- HTML formatidagi kitob (HTML fayllar to'plami va ular bilan bog'langan kartinkalar);
- mp3 audio yozuv;
- DivX video yozuv;
- MS PowerPoint formatidagi taqdimot.

Murakkab tuzilmali raqamli ta’lim resurslari – alohida elementlarga bo‘linishga imkon beradigan resurslar. Masalan:

- turli xil murakkablik darajalaridagi interaktiv jadvallar;
- interaktiv tavsiflar, gipermatn ko‘rinishidagi qoidalar;
- gipermatn, she’rga havolalar, muallif portreti, muallifning tarjimai holi, uning ijodi to‘g‘risidagi tanqidiy maqolalardan tarkib topgan.

Raqamli ta’lim resurslari kolleksiyalari predmet-tematik tamoyil bo‘yicha shakllanishi kerak va elementar axborot manbalari va murakkab tuzilmalar manbalarining majmui bo‘lishi kerak.

Axborot ta’lim muhitida sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini media savodxonligini rivojlantirish mexanizmi sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqamiz.

Ta’limda sifatning ortishiga pedagogik jarayonlarni tashkil qilishning innovatsion shakllari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va katta miqdordagi resurslarning mavjudligi kabi innovatsion komplekslarni yaratilishi hisobiga erishish mumkin. Bunday komplekslar o‘quv-tarbiya jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilishga tayyor qobiliyatli, media bilimlarga ega tarbiyachiga mo‘ljallangan. Axborot texnologiyalari o‘quv-tarbiya jarayonida yangi shakldagi ta’lim texnologiyalarini qo‘llash natijasida nisbatan samarali o‘qitishni tashkil qilish imkonini beradi.

SMART – ta’lim (education) – mohiyat jihatdan yangi ta’lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o‘tish uchun tarbiyachi, mutaxassis va tarbiyalanuvchilarning kuchlarini, ya’ni ta’lim faoliyatini birlashtirishdir.

Hozirda faol axborot jamiyatida yashamoqdamiz. Respublikamizdagi ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy talablar darajasida — SMART universitet joriy etish masalasi maqsad qilib olingan. Bu kabi texnologiyalarning joriy qilinishi oliy ta’lim muassasasining o‘quv, ilmiy va boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirishga qaratilgan ma’lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko‘rsatish hamda boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadigan oliy ta’lim muassasasining yagona platformasining asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining media savodxonligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Media savodxonlik tarbiyachilarga axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan pedagogik faoliyatda maqsadli foydalanish imkonini beradi. Raqamli ta’lim resurslari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining mazmuni va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarning media kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli ta’lim muhitini keng joriy etish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Natijada tarbiyachilarning kasbiy salohiyati yuksaladi va ta’lim-tarbiya jarayonining sifati yanada takomillashadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Media va axborot savodxonligi. O‘quv qo‘llanma. B.Namazov, M.Fayzieva, Sh.Sharafiddinov. Toshkent, Baktria press. 2018.
2. Lutfullayev M.H. Multimedia elektron darsliklar yaratish masalalari // Kasb-hunar ta’limi. – T.: 2004. -№1. – B. 21-22.
3. Астахова Е.В. Информационно-коммуникационные технологии: учебное пособие / Е.В.Астахова. – Барнаул: Изд-во Алт. гос. техн. ун-та им. И. И. Ползунова, 2010.

4. Долинер Л.И. Информационные и телекоммуникационные технологии в обучении: психолого-педагогические и методические аспекты: монография / Л.И.Долинер. – Екатеринбург: Рос. гос. проф.-пед. ун-т., 2003.
5. Федоров А.В. Медиаобразование, медиаграмотность, медиакритика и медиакультура / А.В.Федоров // Высшее образование в России. – 2005.